

## PUDRAT SHARTNOMASI

Ikki tomonlama xo‘jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligi hamda o‘z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi **Beshariq tumani maktabgacha ta’lim bo‘limi** nomidan raxbar **Sh.Baratalieva** (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birlinchi tomonidan va o‘z Nizomi asosida ish yurituvchi **«Beshariq Ideal» x/k** (keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar **A.Otaxonov** ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzdilar:

### 1. ShARTNOMA PRYEDMYETI.

1.1 «Pudratchi» mazkur shartnomasi shartlariga asosan: Beshariq tumani Novkat qishlog‘ida joylashgan 28-MTT binosini joriy ta‘mirlash ishlarni loyixa-smeta xujjalarda nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib olib, to‘lovlarni amalga oshiradi.

### 2. ShARTNOMA BAXOSI.

2.1. Mazkur shartnomasi bo‘yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta‘mirlash ishlari qiymati loyixa-smeta xujjalarda asosan barcha soliqlar, yig‘imlar va ajratmalarni o‘z ichiga olgan holda jami **313,500,000 (Uch yuz o‘n uch million besh yuz ming)** QQS bilan so‘mni tashkil etadi

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo‘lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qushimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

### 3. XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta‘mirlash ishlari tuliq bajarilgandan so‘ng, o‘zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o‘tkazish yuli bilan to‘lovnini amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnomasi umumiy summasini **30 %** miqdorida avans to‘lovnini «Pudratchi» xisob raqamiga o‘tkazib beradi. Keyingi xisob-kitoblar xaqiqatda bajarilgan ishlarni xajmiga qarab, avans mablag‘larini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

### 4. IShLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI.

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan tulov amalga oshirilgan kundan boshlab **5** kun muddat ichida «Pudratchi» tomonidan ta‘mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarni shartnomasi imzolaniq qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran **25** kun ichida yakunlanishi kerak.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me’yorlari talablariga muvofiq bo‘lishini va sifatli bajarilishini ta‘minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mexnat muxofazasi va yongin xavfsizligi talablariga rioya qilgan xolda amalga oshiradi.

### 5. TOMONLARNI HUQUQ VA MAJBURIYaTLARI.

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta‘mirlash ishlarni tuliq xajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. «Buyurtmachi» ta‘mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyixa-smeta xujjalarda mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta‘mirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlarni buyicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnomasi rasmiylashtiriladi va **10** kun muddatda «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o‘z mablag‘i va o‘z kuchi bilan **10** kun davomida bartaraf etiladi.

### 6. JARIMALARNI QO’LLANILISHI.

6.1. Tomonlardan biri shartnomasi shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomoniga yetkazilgan zararni to‘liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan ta‘mirlash belgilangan muddatlarda boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlarni qiymatini **0.5%** miqdorida har bir muddati o‘tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to‘laydi, lekin bunda jarimanining umumiy summasi bajarilmagan ishlarni qiymatini **50%** dan oshmasligi kerak.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta‘mirlash ishlarni belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to‘lovlari o‘z muddatida amalga oshirilmasa to‘lanmagan summani **0.4%** miqdorida har bir muddati o‘tgan kun uchun «Pudratchi»ga jarima to‘laydi, lekin bunda jarimanining umumiy summasi o‘tkazib berilmagan mablaglar summasini **50%** dan oshmasligi kerak.

6.4. Jarimalar to‘lanishi «Pudratchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

### 7. FORS-MAJOR XOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnomasi buyicha majburiyatlar qisman yoki to‘lik bajarilmasligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshqa yengib bo‘lmash kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

### 8. QO’SIMChA ShARTLAR.

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o‘zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo‘ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishivi bilan xal qilinadi. O‘zaro kelishilmasa xo‘jalik sudi va O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlar tartibda xal qilinadi.

8.2. Sharhnomalar taraflarning o‘zaro kelishuviga asosan yoki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjalari normalariga binoan keltirilgan zararni to‘lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

8.3. Ushbu sharhnomani amal qilish muddati 2022 yil 25 dekabrgacha. Sharhnomalar ikki tomonlama imzolаниб, г‘азначилик бoshqarmasi (bo‘lim)dan ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng qonuniy kuchga kiradi.

## 9. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Sharhnomalar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo‘lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va‘da qilish, ta‘magirlilik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo‘lish xatti- harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag‘batlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovg‘alarini taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg‘araz ko‘rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag‘batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti- harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma’lum qiladilar.

Tomonda ushbu Sharhnomaning talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to‘g‘risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalaringin normalari buzilganligi faktining rad etib bo‘lmaydigan dalillari mavjud bo‘lgan holda esa amaldagi qonun hujjalarda belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi

## 10. TOMONLARNI XUKUKIY MANZILI VA RYEVIZITLARI

### «Pudratchi»

«Beshariq Ideal» x/k  
(etkazib beruvchining (pudratchining) nomi)  
Manzil: Beshariq tumani  
Tel./faks +99897 949-10-05  
(h/shg‘h)20208000705058860001

### «Buyurtmachi»

Beshariq tumani maktabgacha ta’lim bo‘limi  
(buyurtmachi nomi)  
Manzil: Besharik tumani Sirdaryo kuchasi № 12  
Tel./faks 61-21-627  
shg‘h\*100022860302157091100251001

Bank nomi «Xalq banki» Beshariq filiali  
STIR: 306338285 MFO: 00797

Tashkilotning STIRi 305153351  
OKONX 97200  
G‘aznachilik bo‘linmasining nomi:  
Besharik tuman buyicha Gaznachilik bulinmasi  
YaG‘H 23 402 000 300 100 001 010  
Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar  
Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)  
MFO:00014  
G‘aznachilik bo‘linmasining STIRi: 201122919



Rahbar  
(lavozimi) (imzo)

A.Otaxonov  
(F.I.O.)

rahbari \_\_\_\_\_ Sh.Baratalieva  
(lavozimi) (imzo) (F.I.O.)  
M.O.

Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR  
Code ni skanerlang.



Imzolovchi F.I.SH.	SHOIRAXON BARATALIYEVA ALIMJANOVNA
Imzolangan sana	12.10.2022 15:06
Hujjat kodi	KM4607443465

Hulosa kodi

**JG1283154745**

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

JG1283154745

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Pudrat shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman maktabgacha ta'lif bo'limi tomonidan 07.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Beshariq tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:



F.I.JO‘RAYEV

12.10.2022

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Бешариқ тумани Мактабгача

таълими

бўлими мудири (комиссия раиси)

Ш.Бараталиева



Ўзбекистон Республикаси Вазирлар махкамасининг 2022 йил 20 майдаги Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш хақидаги қарори ва Давлат харидлари тўғрисидаги қонуннинг 62-моддасининг 7-хатбоисига кўра Бешариқ тумани мактабгача таълим бўлими тасарруфидаги 28-сонли МТТ биносини жорий таъмирлаш (лот №22110012155874) бўйича  
танлов комиссиясининг муҳокама натижалари юзасидан

### 67-СОНЛИ МАЖЛИС БАЁНИ

2022 йил “12” октябр соат 14:00

Бешариқ шаҳри

#### Танлов комиссияси иштирокчилари:

Ш.Бараталиева

- Бўлим мудири, комиссия раиси;

М.Ботирадиев

- марказлашган молия-бухгалтерия хизмати бош ҳисобчиси, танлов комиссияси аъзоси;

Ф.Қўлдошев

- маҳсус таъмирлаш-эксплуатация хизмати бошлиги, танлов комиссияси аъзоси;

Б.Ахмедов

- кадрлар бўйича инспектор, танлов комиссияси аъзоси;

А.Туранов

- маҳсус таъмирлаш-эксплуатация хизмати таъминотчиси, танлов қомиссияси аъзоси;

#### **Йиғлиш кун тартибидаги кўриладиган масала;**

2022-йилда etender.uzex.uz лот №22110012155874 рақами билан Бешариқ тумани мактабгача таълим бўлими тасарруфидаги 28-сонли МТТ биносини жорий таъмирлаш учун 26.09.2022 йилдан 03.10.2022 йилгача бўлган вақтда порталга жойлаштирилган. Танловда 2 (икки) нафар иштирокчи қатнашди булар 1. Бешариқ идеал МЧЖ  
2. “Sherxon Invest qurilish one” МЧЖ

Танлов 04.10.2022 йил куни танлов комиссияси аъзолари томонидан Бешарик идеал МЧЖ ғолиб деб топилди ва 04.10.2022 йил соат 11:27 да электрон баённома расмийлаштирилди ва шу пайтнинг ўзида 2 иш кунига мухокамага жойлаштирилди. Шу 2 иш куни давомида хеч қандай эътиrozлар келиб тушмади ва маҳсус комиссия қарори билан Бешарик идеал МЧЖ билан шартнома тузишга қилинди.



Ш.Бараталиева

М.Ботирадиев

Ф.Кўлдошев

А.Туранов

Б.Ахмедов